Qabul qilindi: 25-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 28-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 3-oktyabr 2026-yil

SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA INSON AVTONOMIYASI VA ERKINLIGINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Alisher Mamajonov

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0000-3482-4321

ScienceID: MFR-0532-0042

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan algoritmik tavsiya tizimlari sharoitida inson avtonomiyasi va erkinligi tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — avtonomiyaning klassik falsafiy talqinidan zamonaviy raqamli-algoritmik muhitgacha bo’lgan o’zgarish mexanizmlarini aniqlash va uni saqlashning nazariy-amaliy yo’llarini asoslashdan iborat. Falsafiy-tahliliy va dialektik metodlar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, algoritmik tizimlar insonning tanlov erkinligini “filtrlangan” axborot makoni orqali cheklab, yashirin ta’sir mexanizmlarini keltirib chiqarmoqda. So‘nggi tadqiqotlar asosida avtonomiyani himoya qilishning institutsional mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so’zlar: avtonomiya, erkinlik, sun’iy intellekt, algoritmik boshqaruv, raqamli hukmronlik, ijtimoiy falsafa, qadr-e’tibor.

KIRISH

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari, ijtimoiy tarmoq algoritmlari va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlari insonning tanlov erkinligi va avtonomiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy falsafiy tushunchada avtonomiya insonning o‘z xatti-harakati, qadriyatlari va hayotiy yo‘lini mustaqil ravishda belgilash qobiliyati bo‘lib, u inson qadrining markaziy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi [15; 245]. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan algoritmik tavsiya tizimlari, insonning tanlovlarini oldindan bashorat qilish va yo‘naltirish

orqali ushbu avtonomiyani sekin-asta zaiflashtirmoqda. Zamonaviy siyosiy falsafada bu muammo “raqamli hukmronlik” tushunchasi orqali tahlil qilinib, u insonning nafaqat bevosita majburlashdan, balki uning ustidan potensial nazorat o‘rnatish imkoniyatidan ham xoli bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi [20]. Bu yondashuv klassik respublikachilik siyosiy falsafasidan kelib chiqib, erkinlikni faqat “aralashuvning yo‘qligi” emas, balki “nazoratning yo‘qligi” sifatida talqin qiladi, bu esa algoritmik tizimlar orqali amalga oshirilayotgan yashirin, ammo tizimli ta’sirlarni ham erkinlikka tahdid sifatida baholash imkonini beradi. Bunday nazariy asos sun’iy intellekt davrida avtonomiya muammosini nafaqat huquqiy-institutsional, balki chuqur falsafiy-antropologik nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, sun’iy intellekt sharoitida inson avtonomiyasi va erkinligining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etish, uning transformatsiya mexanizmlarini aniqlash va uni saqlashning nazariy-amaliy yo‘llarini izlash zamonaviy ijtimoiy falsafaning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mavzuning ilmiy-nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, avtonomiya va sun’iy intellekt muammosi turli mintaqalarda turlicha nuqtai nazardan o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar bu masalani ko‘proq milliy identiklik va ijtimoiy ong kontekstida tahlil qilib, algoritmik muhitda individning dunyoqarashi va qadriyatlari qanday shakllanayotganini ko‘rsatib bermoqdalar, bunda inson bir tomondan foydalanuvchi subyekt, ikkinchi tomondan esa algoritmlar tomonidan shakllantiriluvchi ob’ektga aylanish xavfi ostida ekanligi ta’kidlanadi [3; 250]. Faylasuflar esa raqamli jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar dinamikasini, jumladan texnologik determinizmning inson erkinligiga ta’sirini falsafiy jihatdan tahlil qilmoqdalar, biroq bu tadqiqotlarda avtonomiya tushunchasining o‘zi ko‘pincha ikkinchi darajali masala sifatida qaraladi [9; 4]. Yevropalik tadqiqotchilar, o‘z navbatida, sun’iy intellekt boshqaruvi tizimlarining shaffoflik, javobgarlik va inson nazorati kabi tamoyillarga asoslanishini tahlil qilib, ushbu tamoyillarning insonning chuqur ekzistensial avtonomiyasini to‘liq himoya qila olmasligini asoslashadi [17; 4]. Shunga qaramay, avtonomiya muammosini yaxlit ijtimoiy-falsafiy metodologiya asosida, mintaqalararo qiyosiy tahlil orqali o‘rganuvchi ishlar hali yetarli emas. Ushbu bo‘shliqni

to‘ldirish maqsadida ushbu maqolada avtonomiya tushunchasining falsafiy asoslari, uning sun’iy intellekt davridagi transformatsiya mexanizmlari va uni saqlashning institutsional yo‘llari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda falsafiy-tahliliy metod avtonomiya tushunchasining kontseptual tarkibini va uning tarixiy-falsafiy ildizlarini aniqlashda qo‘llanildi. Olimlarning avtonomiya va sun’iy intellekt muammosiga oid yondashuvlari qiyoslandi [8; 52]. Dialektik metod texnologik taraqqiyot va inson erkinligi o‘rtasidagi ziddiyatlarni ularning ichki rivojlanish manbai sifatida talqin qilishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv esa inson, jamiyat va algoritmik tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi, bu borada zamonaviy falsafiy tadqiqotlar insonning ijtimoiy tajribasi tobora raqamli vositalar orqali vositachilashib borayotganini alohida ta’kidlaydi [11; 12]. Tadqiqot mavjud falsafiy, huquqiy va ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarni kontent-tahlil qilish asosida olib borildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Avtonomiya tushunchasi Kant falsafasida insonning o‘z aql-idroki asosida axloqiy qonun chiqarish va unga bo‘ysunish qobiliyati sifatida talqin etilib, u inson qadrining eng muhim asosi hisoblanadi [15; 246]. Zamonaviy falsafiy diskursda avtonomiya tushunchasi kengaytirilib, u nafaqat axloqiy, balki kognitiv, ijtimoiy va raqamli o‘lchovlarni ham qamrab oladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan mashinali o‘rganishga asoslangan tavsiya tizimlari, insonning kundalik tanlovlarini nima o‘qish, nima sotib olish, kim bilan muloqot qilish kabi masalalarni oldindan bashorat qilib, ularni yo‘naltirish orqali avtonomiyaning amaliy negizini zaiflashtirmoqda. Bu jarayonda inson ko‘pincha o‘z tanlovini mustaqil ravishda amalga oshirayotganiga ishonadi, biroq aslida uning tanlovi allaqachon algoritmik tizim tomonidan “filtrlangan” cheklangan variantlar doirasida shakllanadi [3; 250]. Falsafiy nuqtai nazardan bu holat “yashirin manipulyatsiya” muammosini keltirib chiqaradi, chunki insonning bilishi va roziligi bo‘lmagan holda uning xatti-harakatiga ta’sir o‘tkazish klassik avtonomiya tushunchasiga ziddir. Tadqiqotchilar bu

jarayonni texnologik singulyarlik gorizontiga yaqinlashuv sifatida talqin qilib, insonning mustaqil ijodiy ong va tanlov qobiliyatiga oid an’anaviy tasavvurlarning tobora zaiflashib borayotganini qayd etadilar [12]. Shu bilan birga, avtonomiyaning to‘liq yo‘qolishi haqida gapirish hali erta, chunki inson hamon algoritmik tavsiyalarni qabul qilish yoki rad etish erkinligiga ega, muammo shundaki, bu erkinlikni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot va tanqidiy tafakkur resurslari notekis taqsimlangan.

Respublikachilik siyosiy falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, sun’iy intellekt tizimlari orqali amalga oshirilayotgan nazorat hatto u amalda ishlatilmasa ham insonning erkinligiga tahdid soluvchi “hukmronlik” holati sifatida baholanishi mumkin, chunki muhim bo‘lgani nazoratning haqiqiy ishlatilishi emas, balki uning imkoniyati hisoblanadi [20]. Bu nazariy asos sun’iy intellekt kompaniyalari va davlat organlari qo‘lidagi ma’lumotlar va algoritmik vositalarning katta hajmini alohida tashvish manbai sifatida ko‘rsatadi, chunki bunday resurslar istalgan vaqtda fuqarolarning xatti-harakatini yashirin tarzda boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Raqamli gumanizm konsepsiyasi bu muammoni hal etishning bir yo‘li sifatida texnologik boshqaruvni demokratik nazorat ostiga olish, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish hamda fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirishni taklif etadi [18; 5]. Feministik g‘amxo‘rlik etikasi an’analariga asoslangan tadqiqotlar esa avtonomiyani faqat individual mustaqillik sifatida emas, balki o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali shakllanadigan “munosabatga asoslangan avtonomiya” sifatida qayta talqin qilishni taklif qiladi, bu esa texnologik dizaynda insonning ijtimoiy ehtiyojlarini ham hisobga olishni talab etadi [19]. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun avtonomiyani saqlashning amaliy yo‘llari qatoriga raqamli savodxonlikni rivojlantirish, algoritmik shaffoflik talablarini milliy qonunchilikka kiritish va fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish kiradi, bu esa mintaqada texnologik taraqqiyot bilan inson erkinligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari inson avtonomiyasi va erkinligiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda: bir tomondan, ular

insonning tanlov imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan yashirin manipulyatsiya va “raqamli hukmronlik” orqali uning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini zaiflashtirish xavfini keltirib chiqaradi. Avtonomiyaning klassik, individual va ratsional talqini zamonaviy raqamli sharoitda “munosabatga asoslangan” va ijtimoiy-institutsional jihatlarni ham qamrab oluvchi kengroq tushuncha sifatida qayta ko’rib chiqilishi lozim. Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

birinchidan, algoritmik tizimlarni loyihalashda shaffoflik va foydalanuvchi roziligi tamoyillarini majburiy me’yor sifatida joriy etish;

ikkinchidan, ta’lim tizimida raqamli va algoritmik savodxonlikni rivojlantirish orqali fuqarolarning tanqidiy tafakkur qobiliyatini oshirish;

uchinchidan, milliy va xalqaro huquqiy tizimlarda avtonomiyaga tahdid soluvchi algoritmik amaliyotlarni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish [16; 395]. Kelgusi tadqiqotlar uchun avtonomiyaning turli ijtimoiy guruhlar (yoshlar, keksa avlod, qishloq aholisi) orasida algoritmik ta’sirga moyilligini qiyosiy o’rganish istiqbolli yo’nalish sifatida belgilanadi. Yakun sifatida ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt davrida inson erkinligini saqlash texnologik taraqqiyotni insonparvarlik tamoyillariga bo’ysundirishning ajralmas shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Аббосова Ш.Т. Сунъий интеллект ва ижтимоий барқарорликнинг фалсафий таҳлили // FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. – 2025. – Vol. 31, №5. – B. 108–109.

2. Зокиров М. Сунъий интеллектнинг мамлакатлар тараққиётига таъсирининг ижтимоий-фалсафий аҳамияти // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – №5(24). – B. 499–505.

3. Остонов Ж.Э. Миллий ўзликни англашнинг янги парадигмаси: инсон – жамият – алгоритм муносабати // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – №6(22). – B. 246–254.

4. Саидмуротов Ш.А. Ахборотлашган жамиятда маънавий қадриятларнинг ўрни

// Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – №6(5). – B. 590–593.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida"gi PQ-358-son qarori, 2024-yil 14-oktabr. – Toshkent, 2024.

6. Бурнашев Р.Ф., Насимова М.У. Философский анализ трансформаций понятия «любовь» в информационном обществе // КиберЛенинка. – 2023.

7. Бурнашев Р.Ф., Асророва М.О., Масарова К.Ф. Философские основы концепции безопасности личности в эпоху цифровизации // КиберЛенинка. – 2023.

8. Гасилин А.В., Скипин Н.С. Философские проблемы искусственного интеллекта: библиографический указатель / ИНИОН РАН; отв. ред. А.В. Гасилин. – М., 2023. – 207 с.

9. Динамика социальных отношений в цифровом обществе: философские аспекты // Zenodo. – 2026.

10. Философские аспекты цифровой этики в эпоху технологического прогресса // КиберЛенинка. – 2023.

11. Человек в условиях цифровизации как предмет современных философских исследований // Вестник Санкт-Петербургского университета. Философия и конфликтология. – 2025.

12. Цифровое общество: человек, культура, природа в горизонте сингулярности // КиберЛенинка.

13. Этика искусственного интеллекта и история искусственного интеллекта / Центр ИИ НИУ ВШЭ. – М., 2023.

14. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO, 2021. – 44 p.

15. Human dignity and AI: mapping the contours and utility of human dignity in addressing challenges presented by AI // Law, Innovation and Technology. – 2023. – Vol. 15, №1. – P. 241–279.

16. Human dignity in the age of Artificial Intelligence: an overview of legal issues and regulatory regimes // Australian Journal of Human Rights. – 2025. – Vol. 30, №3. – P. 386–408.

17. Artificial Intelligence Governance and the Future of Human Societies: Dignity, Meaning and Civilizational Responsibility // Societies. – 2026. – Vol. 16, №7. – Art. 226.

18. Model of ethical analysis of digital technologies: towards true digital humanism // AI & Society. – 2025.

19. Cultivating Dignity in Intelligent Systems // Philosophies. – 2024. – Vol. 9, №2. – Art. 46.

20. Digital Domination: A Case for Republican Liberty in Artificial Intelligence // arXiv preprint. – 2025.

